

O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI



**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY  
TARBIYA VA SPORT  
UNIVERSITETIDA MANFAATLAR  
TO‘QNASHUVI HAQIDA  
NIZOM**



CHIRCHIQ - 2023

**Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha Nizom universitetda manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash, uning oldini olish va tartibga solish tartibini belgilaydi.**

**Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni va boshqa qonunchilik xujjatlari talablari hamda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro tashkilotlar tavsiyalari va ilg‘or xorijiy tajribasi, jumladan ISO 37001:2016 “Korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimi – Talablar va ularni qo‘llashga doir tavsiyalar” xalqaro standarti talablari va tavsiyalarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.**

**Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha Nizom Universitetda yuzaga kelgan va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish va boshqarish va shu orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlarga chek qo‘yish imkonini beradi.**

## **O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risida NIZOM**

### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti boshqarma va bo‘limlari, fakultetlar va boshqa tarkibiy bo‘linmalarida manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash, oldini olish va hal qilish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizom talablari universitetning barcha professor-o‘qituvchilari, boshqaruv, texnik, xizmat ko‘rsatuvchi va o‘quv-yordamchi xodimlar (keyingi o‘rinlarda-xodimlar), shuningdek talabalar, magistrantlar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilariga (keyingi o‘rinlarda-talabalar) egallab turgan lavozimi va xizmat vakolatlaridan qat’iy nazar qo‘llaniladi.

3. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

**aloqador shaxslar** - xodim bilan tijorat tashkilotlarining ustav kapitalida ishtirok etadigan shaxslar, aksiyalari Respublika fond birjasida ommaviy muomalada bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlarining besh foizidan kam bo‘lgan miktordagi aksiyaga ega ekanligi xolatlari bundan mustasno;

**universitet tarkibiy tuzilmasi** - O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti tarkibiy tuzilmasi quyidagi ko‘rinishda shakllantirilgan:

Universitet rektorati;

Universitetning Nukus va

Farg‘ona filiallari;

Fakultetlar;

Kafedralar;

Bo‘limlar;

**kontragent** – universitet va uning boshqa tarkibiy tuzilmalari bilan shartnomaviy munosabatga kirgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxslar, mehnat munosabatlari, abituriyentlar, joriy talabalar va o‘quvchilar bundan mustasno;

**manfaatlar to‘qnashuvi** - shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik, universitetdagi xodimning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan universitetning xuquqlari va qonuniy manfaatlari to‘g‘risida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat;

**manfaatlar to‘qnashuvini oshkor qilish** - xodimlar tomonidan potentsialli yoki xaqiqiy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida e’lon qilish tartib-taomili;

**manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish** - universitetning manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi natijasida universitet xodimining xizmat vazifalarini tegishli

tarzda bajarishlari va u yoki xodimlarning shaxsiy manfaatlari universitetning manfaatlaridan ustun bo'lishi xatarini kamaytirish yoki bartaraf etish maqsadlarida amalga oshiradigan chora-tadbirlar majmui;

**mahalliychilik** - shaxsni faqatgina qarindoshligi (qarindoshni hamma bilishi/mashhurligi va uning jamoatchilik tomonidan keng e'tirof etilgan) va bunday shaxsning hokimiyat vakolatiga ega bo'lgan organlardagi qarindoshlarining xizmat mavqeyi sababli lavozimga quyiladigan malaka talablarini hisobga olmasdan ishga yollash, rotasiya qilish, lavozimga tayinlash;

**nepotizm (tanish-bilishchilik)** - o'zining yaqin qarindoshlari yoki do'stlariga g'ayriqonuniy imtiyozlar berish maqsadida xokimiyatdan foydalanish va (yoki) ta'sir o'tkazish, shuningdek yaqin qarindoshlari va (yoki) do'stlariga asossiz mukofotlar hisoblash, universitet manfaatlarini zarariga yaqin qarindoshlari va do'stlarini ishga qabul qilish va lavozimga tayinlashlar;

**potensial manfaatlar to'qnashuvi** - xodimning, uning yaqin qarindoshlarining yoki universitet bilan bog'liq bo'lgan shaxsning shaxsiy manfaatlari (shu jumladan shaxsiy, ijtimoiy, mulkiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijorat yoki notijorat manfaatlar) muayyan vaziyatlar yuzaga kelganda, ular universitet manfaatlariga qarama-qarshi bo'lishi va universitet xodimlari tomonidan xizmat majburiyatlarini bajarishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan vaziyat;

**urug'-aymoqchilik** - xodimning umumiy ajdodga ega bo'lgan muayyan qarindoshga mansubligi asosida uchinchi shaxslarga nisbatan sub'yektiv, iltifotli va noxolis munosabatda bo'lish shakldagi shaxsiy manfaatini namoyon etilishi;

**favoritizm** - universitet xodimi bir shaxs yoki bir guruh shaxslar manfaatlarini boshqa shaxs va (yoki) shaxslar guruhi manfaatlaridan ustun qo'yishi, shu bilan birga, universitetda xodimlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, lavozimi bo'yicha ko'tarish, mukofotlarni hisoblash va davlat mukofotlariga tavsiya qilish, mehnat ta'tillari berish yoki sanatoriylar va xorij safarlariga yuborish, murojaatlarni ko'rib chiqish navbatini, shuningdek ish vaqti va navbatchilik grafiklarini belgilash shular jumlasidandir;

**xodimning shaxsiy manfaatdorligi** - universitet xodimi tomonidan o'z xizmat vazifalarini bajarish chog'ida uning yaqin qarindoshi yoki xodimga aloqador bo'lgan shaxslar tomonidan xodimning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan pul mablag'lari, moddiy yoki nomoddiy qimmatliklar, boshqa mol-mulk, boylik va imtiyozlar ko'rinishida shaxsiy naf olish imkoniyati (shaxsiy, ijtimoiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijorat yoki notijorat manfaatlarini);

**haqiqiy manfaatlar to'qnashuvi** – xodimning, uning yaqin qarindoshlarining va (yoki) universitet bilan bog'liq bo'lgan shaxsning shaxsiy manfaatlari (shu jumladan shaxsiy, ijtimoiy, mulkiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijorat yoki notijorat manfaatlar) universitet manfaatlariga bevosita yoki bilvosita qarama-qarshi bo'lgan vaziyat;

**yaqin qarindoshlar** - qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo'lgan shaxslar, ya'ni ota-ona, tug'ishgan va o'gay aka-uka va opa-singillar, er-xotin, farzand, shu jumladan farzandlikka olinganlar, bobo, buvi, nevaralar, shuningdek er-xotinning ota-onasi, tug'ishgan va o'gay aka-uka va opa-singillari.

4. Universitetda manfaatlar to'qnashuvini boshqarish masalalarida quyidagi asosiy prinsiplarga amal qilinishi shart:

fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;  
o'z xizmat vazifalarini bajarishda davlat manfaatlarini shaxsiy manfaatdorligidan ustun qo'yishi;  
oshkoralik, vijdonlilik va xolislik asosida qarorlar qabul qilinishi;  
potensial yoki haqiqiy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi axborotni oshkor qilishning majburiyligi;  
manfaatlar to'qnashuviga qarshi profilaktik choralarning ustuvorligi;  
manfaatlar to'qnashuvi holatlarini ko'rib chiqish va manfaatlar to'qnashuvini hal qilishda jamoaviylikka amal qilishi;  
manfaatlar to'qnashuvi alomatlari bilan tavsiflangan vaziyatlarni ko'rib chiqish, baholash va hal qilishga xolis yondashuvi;  
ushbu Nizomda belgilangan tartibda universitet xodimlari tomonidan taqdim etilgan manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlarning maxfiylikini ta'minlashi;  
agar xodim biron-bir qaror qabul qilishdan avval yoki o'ziga yuklatilgan funksiyalarni bajarishdan oldin manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida tegishli tartibda xabar bergan hamda universitet manfaatlari foydasiga o'z shaxsiy manfaatlaridan voz kechishga tayyor bo'lsa, uni haqiqiy yoki potensial manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi sababli ishdan bo'shatilishiga yo'l qo'yilmasligi.

## **2-bob. Mas'ul tarkibiy bo'linmalar xodimlarining majburiyatlari va vakolatlari**

5. Universitet xodimlari o'zlarining xizmat majburiyatlarini bajarishida yoki universitet manfaatlarini ifodalashda ushbu Nizomda belgilangan tamoyillarga amal qilishlari, shuningdek manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan vaziyatlardan o'zlarini saqlashlari shart.

6. Xizmat vazifalarini bajarishda manfaatlar to'qnashuvining oldini olish uchun universitetning xodimlari:

ushbu nizomning talablariga rioya qilishi;  
faqat universitet manfaatlarini ko'zlashi;  
o'z xizmat mavqeidan faqat universitet manfaatlarida foydalanishi;  
universitetning manfaatlariga zid keladigan yoki zid kelishi mumkin bo'lgan shaxsiy manfaatlar to'g'risida universitet rahbariyatini xabardor qilishi;  
nepotizm (tanish-bilishchilik), favoritizm, mahalliychilik, xomiylik va urug'-aymoqchilikning namoyon bo'lishiga qat'iy chek qo'yishi;  
potensial yoki haqiqiy manfaatlar to'qnashuvi haqidagi ma'lumotlarni o'z vaqtida va to'liq oshkor qilishi;

o'zining yaqin qarindoshlari va aloqador shaxslari to'g'risidagi ma'lumotlarning to'liq ro'yxatini, o'zining va ularning nodavlat notijorat tashkilotlaridagi ishtiroki haqidagi ma'lumotlarni halol, to'liq va vijdonan oshkor qilishi shart.

7. Manfaatlar to'qnashuvini oldini olish maqsadida universitetning xodimlari quyidagi hollarda manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida xabar berishi kerak.

Manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarga quyidagilar kiradi:

- xodimning buysunuvida yaqin qarindoshlari va (yoki) o'zaro bog'langan

shaxslar bo'lsa;

- xodim yaqin qarindoshlari va (yoki) o'zaro bog'langan shaxslarga nisbatan kadrlar masalasi bo'yicha qarorlar qabul qilishi (shu jumladan, ish haqqini hisoblash va to'lash, mukofotga, ish haqiga qo'shimchalar va rag'batlantirishning boshqa turlariga tavsiya qilish va uning summasini belgilashi);

- xodim va (yoki) uning yaqin qarindoshlari tijorat tashkilotlarining aksiyalariga yoki ulushga egalik qilishi (xodim va (yoki) uning yaqin qarindoshlari Respublika Fond birjasida yoki boshqa fond birjalarida ochiq muomalada bo'lgan aksiyadorlik jamiyatining besh foizdan kam bo'lgan aksiyalariga egalik qilishi bundan mustasno);

- xodim va (yoki) uning yaqin qarindoshlari turli tashkilotlarni (shu jumladan, tijorat va nodavlat notijorat tashkilotlarini) boshqarishda ishtirok etishlari;

- xodim uning yaqin qarindoshi va/yoki o'zaro bog'langan shaxs mas'ul hisoblanadigan universitetning ma'lum funksiyalarini nazorat qilganda;

- xodimning shaxsiy manfaatdorligi bo'lgan shaxslardan va (yoki) uning yaqin qarindoshi bo'lgan shaxslardan tovarlar xarid qilish, xizmatlar ko'rsatish yoki ishlarni bajarish bo'yicha qarorlar qabul qilishda ishtirok etishi;

- universitetning qabul komissiyasi a'zosi o'zining yaqin qarindoshlari va ularning farzandlarini, o'zaro yaqin shaxslari va ularning farzandlarini o'qishga qabul qilish bo'yicha qaror (shu jumladan kollegial) qabul qilishi,

shuningdek, shaxsiy manfaatdorlik asosida o'qishga qabul qilishni amalga oshirishi;

- xodim o'zining yaqin qarindoshlari va ularning farzandlarini grant mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladigan ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirayotgan ilmiy jamoaga jalb etish to'g'risida (o'zi yoki kollegial) shaxsiy manfaatdorlik asosida noxolis tarzda qaror qabul qilishi;

- grant mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladigan ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish jarayonida xodim universitetning shtat xodimi hisoblanishi;

- xodim o'zining yaqin qarindoshlari va ularning farzandlarini o'qishini ko'chirishi/ qayta tiklash to'g'risida qaror qabul qilishni amalga oshirilishi;

- xodim o'zining yaqin qarindoshlari va ularning farzandlarini o'qishtishi, baholashini amalga oshirilishi;

- vaziyatdan kelib chiqib, boshqa holatlar ham manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi holat sifatida baholanishi mumkin.

8. Universitet xodimlari O'zbekistan Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanish huquqiga ega.

9. Mazkur Nizomning 6-ilovasida ko'rsatilgan manfaatlar to'qnashuvi holatlarini aniqlash uchun xodim qaror chiqarishidan avval yoki xizmat vakolatlarini amalga oshirishdan oldin o'ziga quyidagi savollarni berishi lozim: "Men vijdonan va xolisona qaror qabul qila olamanmi?", "Agar ushbu qarorni universitetning boshqa xodimi qabul qilsa, mening fikrimga o'xshash fikrga kelarmidi?" Agar xodim ikkita savollardan biriga "yo'q" deb javob bersa, manfaatlar to'qnashuvining kelib chiqishi xavfi mavjud bo'ladi.

10. Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish uchun universitet ushbu Nizomning 6-ilovasiga muvofiq choralar ko'rishlari kerak.

### **3-bob. Manfaatlarni to'qnashuvi haqidagi ma'lumotlarni oshkor qilish va ko'rib chiqish tartibi**

11. Manfaatlarni to'qnashuvi to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

universitetda vakant bo'lgan bo'sh ish joylariga nomzodlarni lavozimga tayinlash va rotasiya qilishda manfaatlarni to'qnashuvini dastlabki tarzda oshkor qilish; manfaatlarni to'qnashuvi to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish (har yillik deklarasiya);

potensial yoki haqiqiy manfaatlarni to'qnashuvi fakti bo'yicha ma'lumotlarni oshkor qilish.

12. Universitetdagi bo'sh ish joylariga nomzodlarni lavozimga tayinlash va rotasiya qilishda manfaatlarni to'qnashuvini dastlabki tarzda oshkor qilish inson resurslarini boshqarish bo'limiga quyidagi hujjatlarni taqdim etish yo'li bilan amalga oshiriladi:

ma'lumotnoma-ob'yektivka va mazkur Nizomning 1-ilovasiga muvofiq shakldagi (xodim tomonidan ichki hujjatlarda nazarda tutilgan hujjatlarni avval taqdim etganligidan qat'iy nazar ma'lumotlar va (yaqin qarindoshlar, aloqador shaxslar, ustav kapitalida xodim yoki uning yaqin qarindoshlarining ulushi bo'lgan yuridik shaxslar, nodavlat notijorat tashkilotlarida xodimning va (yoki) uning rahbarlik lavozimlarini egallab turgan yaqin qarindoshlarining ishtiroki);

mazkur Nizomning 2 va 3-ilovalariga muvofiq lavozimga tayinlanganda yoki yillik deklarasiyani o'zgartirish (to'ldirish) paytida manfaatlarni to'qnashuvi mavjudligi (mavjud emasligi) to'g'risidagi ariza to'ldiriladi.

13. Manfaatlarni to'qnashuvini dastlabki tarzda oshkor qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

xodim tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni xodimlar bo'limi ularda manfaatlarni to'qnashuvi mavjudligi yoki yo'qligi bo'yicha tekshiradi. Manfaatlarni to'qnashuvi aniqlanganida mas'ul xodim ushbu xodimning bevosita rahbariga mazkur manfaatlarni to'qnashuvi va uni hal qilish uchun chora ko'rish zarurligi haqida yozma shaklda xabar qiladi;

xodimning bevosita rahbari ushbu ma'lumotni olgan paytdan boshlab manfaatlarni to'qnashuvini hal qilish choralari ko'radi va bu haqda yozma shaklda xizmat xati ko'rinishida inson resurslarini boshqarish bo'limiga xabar qiladi;

inson resurslarini boshqarish bo'limi xodimning bevosita rahbaridan ko'rilgan choralar bilan xizmat xatini olgan paytdan boshlab 5 ish kuni ichida manfaatlarni to'qnashuvini hal qilish bo'yicha ko'rilgan choralarning yetarliligi va maqbulligini ko'rib chiqish uchun aniqlangan manfaatlarni to'qnashuvi haqidagi ma'lumotlarni universitetning Oдоб-axloq komissiyasining navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritadi. Manfaatlarni to'qnashuvini hal qilish bo'yicha choralar ko'rish yuzasidan qaror universitetning Oдоб-axloq komissiyasi tomonidan qabul qilinadi.

14. Universitet xodimi manfaatlarni to'qnashuvi haqidagi ma'lumotni mazkur Nizomning 3-ilovasiga muvofiq rotasiya yoki tayinlash va yillik deklarasiyani to'ldirish vaqtida manfaatlarni to'qnashuvi mavjudligi/mavjud emasligi to'g'risidagi ariza topshirish yo'li bilan har yil oshkor qilishi lozim.

Manfaatlarni to'qnashuvi haqidagi ma'lumotlarni har yili oshkor qilish quyidagi

tartibda amalga oshiriladi:

universitet barcha xodimlari hisobot davrida yuz bergan voqyealar va o'zgarishlarni hisobga olgan holda, manfaatlar to'qnashuvining mavjudligi yoki mavjud emasligi haqida inson resurslarini boshqarish bo'limiga bir yilda bir marta xabar berishi shart;

universitet xodimlari har yili 10-yanvargacha manfaatlar to'qnashuvi haqidagi ma'lumotni rotasiya (lavozimga tayinlanish)da va mazkur Nizomning 3-ilovasiga muvofiq shaklda har yili ariza topshirishda manfaatlar to'qnashuvining mavjudligi (yo'qligi) haqidagi arizani to'liq va to'g'ri to'ldirishlari va to'ldirilgan arizani inson resurslarini boshqarish bo'limiga taqdim qilishlari lozim;

universitetning inson resurslarini boshqarish bo'limi xodimlarda manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi (yo'qligi) haqida xabar berish zarurligi to'g'risidagi topshiriqni barcha xodimlarga yetkazadi;

universitetning inson resurslarini boshqarish bo'limi har yili 15 yanvargacha manfaatlar to'qnashuvi mavjudligini ko'rsatgan xodimlarni aniqlash uchun manfaatlar to'qnashuvining mavjudligi yoki yo'qligi haqida olingan arizalarni tahlil qiladi;

manfaatlar to'qnashuvi mavjud deb topilgan xodimlar to'g'risidagi ma'lumot ularning bevosita rahbarlariga yetkaziladi hamda universitetning Odob-axloq komissiyasiga va universitetning korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplayens-nazorat" tizimini boshqarish bo'limiga yuboriladi;

Odob-axloq komissiyasi xodimning bevosita rahbari va (zarurat bo'lganda) xodim ishtirokida 20 yanvargacha manfaatlar to'qnashuvi holatini ko'rib chiqadi va manfaatlar to'qnashuvi bilan tavsiflanadigan vaziyatlarni hal qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqadi yoki manfaatlar to'qnashuvi mavjud emasligi haqida qaror chiqaradi;

manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi/yo'qligi va ularni hal qilish bo'yicha mo'ljallanayotgan choralari haqidagi yakuniy qaror Odob-axloq komissiyasining bayonomasiga kiritiladi va xodimga yetkaziladi. Manfaatlar to'qnashuvini hal qilish bo'yicha tasdiqlangan chora-tadbirlarni amalga oshirish ustidan nazorat qilish bo'yicha javobgarlik xodimning bevosita rahbari zimmasida bo'ladi.

16. Bevosita yoki bilvosita manfaatlar to'qnashuvining kelib chiqishi fakti bo'yicha ma'lumotlarni oshkor qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

universitetning har qanday xodimida manfaatlar to'qnashuvi kelib chiqqanda, u bu haqida bevosita rahbariga bevosita yoki bilvosita manfaatlar to'qnashuvi sifatida tavsiflanadigan holatni batafsil bayon etib mazkur Nizomning 4-ilovasiga muvofiq shaklda xabar berishi lozim;

ko'rsatilgan ma'lumot xodimlar tomonidan manfaatlar to'qnashuvi kelib chiqqan yoki xodimga manfaatlar to'qnashuvi ma'lum bo'lgan paytdan boshlab bir ish kuni ichida yozma shaklda taqdim etilishi kerak;

xodimning bevosita rahbari xodimdan yozma xabarni olgan paytdan boshlab uch ish kuni ichida manfaatlar to'qnashuvi haqidagi ma'lumotni ko'rib chiqishi va manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lganida xodimning manfaatlar to'qnashuvi kelib chiqish ehtimoli haqidagi xabarnomasida tegishli ma'lumotni to'ldirib, uni hal qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishi va qabul qilish lozim;

xabarnoma xodim tomonidan bir ish kuni ichida inson resurslarini boshqarish



bo‘limi ro‘yxatdan o‘tkazish va hisobga olish uchun taqdim etiladi;

inson resurslarini boshqarish bo‘limi xabarnomani olib, bir ish kuni ichida manfaatlar to‘qnashuvini hal qilish bo‘yicha ko‘rilgan choralarning yetarliligi va maqbulligi haqida qaror chiqarish uchun Odob-axloq komissiyasining eng yaqin vaqtdagi majlisi kun tartibiga kiritishi lozim. Odob-axloq komissiyasining qarori Odob-axloq komissiyasining majlisi bayonnomasiga kiritiladi va xodimga u tuzilgan paytdan boshlab uch ish kuni ichida ma‘lum qilinadi.

Odob-axloq komissiyasining a‘zosi, agar unda Komissiya majlisida manfaatlar to‘qnashuvi ko‘rib chiqilayotgan xodimga nisbatan manfaatlar to‘qnashuvi mavjud bo‘lganda qaror qabul qilishda ishtirok etmaydi;

agar manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq bo‘lgan aniq vaziyat Odob-axloq komissiyasining a‘zolariga aloqador bo‘lsa, bunday ma‘lumotlar olingan kundan boshlab bir ish kuni ichida universitetning korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limiga taqdim etilishi lozim;

manfaatlar to‘qnashuvining hal etilishiga qarab universitetning Odob-axloq komissiyalari tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi yoki mavjud emasligi haqida xulosa qilinadi hamda universitet rektoriga ko‘rib chiqish uchun taqdim etiladi;

universitet xodimlari tomonidan oshkor etilgan bevosita yoki bilvosita manfaatlar to‘qnashuvi hamda ularni hal etish bo‘yicha ko‘rilgan choralar haqidagi ma‘lumot Odob-axloq komissiyasining majlisi bayonnomasi tuzilganidan so‘ng uch ish kuni ichida manfaatlar to‘qnashuvi holatlari reestrda aks ettiriladi.

#### **4-bob. Manfaatlar to‘qnashuvini hal qilish choralari**

17. Universitet manfaatlarining buzilishini oldini olish uchun mavjud manfaatlar to‘qnashuvini hal qilish choralari imkon qadar tezroq amalga oshirilishi lozim.

18. Universitetda manfaatlar to‘qnashuvini boshqarishda quyidagi choralar belgilanishi kerak:

bevosita bo‘ysinadigan xodimni yaqin qarindoshi bo‘lmagan boshqa shaxs bo‘ysinuviga o‘tkazish;

manfaatlar to‘qnashuvi predmeti bo‘lgan masalalarni muhokama qilishda va ular bo‘yicha qaror chiqarish jarayonida qatnashishdan xodimning o‘z ixtiyoriga ko‘ra chetlashish/o‘zini o‘zi rad etishi yoki uni majburan (doimiy yoki vaqtincha) chetlashtirilishi;

manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik uchun xodimning lavozim majburiyatlari doirasini qayta ko‘rish;

xodim tomonidan uning shaxsiy manfaatdorligi bo‘lgan va manfaatlar to‘qnashuvi predmeti bo‘lgan universitetning ma‘lumotlari va xujjatlaridan foydalanilishini cheklash;

yuqorirok lavozimni egallab turgan yaqin qarindosh yoki aloqador shaxsga nisbatan lavozimni ko‘tarish, faoliyatini baholash, mukofot pullarini to‘lash va ish haqiga ustamalarni hisoblash, o‘qishga va treninglarga hamda har qanday masalalar bo‘yicha xorijga yuborish, mehnat ta‘tiliga chiqishga rozilik berish va ish haqqini nazorat qilish haqida jamoaviy tarzda qaror qabul qilinishini ta‘minlash;

xodimni manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq bo'lmagan mehnatga oid funksiyalarni bajarishini nazarda tutadigan lavozimga o'tkazish va boshqa holatlar.

19. Istisno holatlarda, ushbu Nizomning 14-bandida sanab o'tilgan choralar manfaatlar to'qnashuvini to'liq hal qilmagan taqdirda, quyidagi hal qilish choralari ko'rilishi mumkin:

xodim tomonidan universitetning manfaatlariga to'qnash keladigan shaxsiy manfaatdorligidan voz kechishi;

xodim tomonidan universitetning manfaatlariga to'qnash keladigan shaxsiy manfaatdorligidan voz kechmaganda uni ishdan bo'shatish (mehnat shartnomasini bekor qilish)ga tavsiya berish.

20. Har bir vaziyatda, manfaatlar to'qnashuvi predmetini belgilab beradigan faktdan kelib chiqib, xodim bilan universitetning kelishuviga ko'ra uni hal qilishning boshqa choralari qo'llanilishi mumkin. Ko'riladigan barcha choralar qonunchilik talablariga muvofiq bo'lishi va mazkur Nizomda belgilangan tamoyillarni amalga oshirishni ta'minlashi lozim.

### **5-bob. Axborotning konfidensialligi**

21. Manfaatlar to'qnashuvini hal qilishda qatnashadigan xodimlar olingan ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlashi va ushbu ma'lumotlardan faqat ko'rib chiqish, hisobga olish va hal etish choralari ko'rish hamda ushbu jarayonni nazorat qilish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan foydalanilishini ta'minlashi lozim.

22. Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan universitet xodimlarida manfaatlar to'qnashuvi fakti yoki gumoni haqidagi xabar bilan universitetga murojaat qilinganida uni ko'rib chiqish universitetning inson resurslarini boshqarish bo'limi boshlig'i tomonidan amalga oshiriladi.

### **6-bob. Reyestrni yuritish va saqlashga quyiladigan talablar**

23. Universitetning inson resurslarini boshqarish bo'limi birinchi toifali muhandisi manfaatlar to'qnashuvi holatlarining hisobini mazkur Nizomning 5-ilovasiga muvofiq shaklda Reyestrga kiritish yo'li bilan o'z vaqtida va to'liq yuritishi shart.

24. Universitetning inson resurslarini boshqarish bo'limi birinchi toifali muhandisi xodimlarning manfaatlar to'qnashuvi holatlarining hisobini o'z vaqtida va to'liq yuritilishiga javobgar hisoblanadi.

25. Universitetning inson resurslarini boshqarish bo'limi birinchi toifali muhandisi manfaatlar to'qnashuvi holatlari haqidagi ma'lumotlarni ya'ni Reyestrni har chorakda (yoki zaruratga ko'ra) yig'ish va umumlashtirish yo'li bilan to'plashi lozim.

26. Ma'lumot Reyestrga quyidagi hollarda kiritilishi kerak:

universitetga ishga qabul qilishda - Odob-axloq komissiyasining bayonnomasi tuzilgan paytdan boshlab uch ish kunidan kechiktirmasdan, agar nomzod manfaatlar to'qnashuvining mavjudligi/yo'qligi haqida arizada manfaatlar to'qnashuvining mavjudligini ko'rsatgan bo'lsa va Odob-axloq komissiyasi manfaatlar to'qnashuvi kelib chiqishi mumkinligi faktini tasdiqlasa;

lavozimga tayinlash/rotasiya vaqtida manfaatlar to‘qnashuvini oshkor qilishda - vazir hamda universitet rektori tomonidan buyruq imzolangan paytdan boshlab uch ish kunidan kechiktirmasdan;

manfaatlar to‘qnashuvi kelib chiqishiga ko‘ra - Odob-axloq komissiyasining bayonnomasi tuzilgan paytdan boshlab uch ish kunidan kechiktirmasdan, agar Odob-axloq komissiyasi manfaatlar to‘qnashuvi kelib chiqishi mumkinligi faktini tasdiqlasa;

universitet xodimlari tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi haqidagi ma’lumotni har yili deklarasiya (to‘liq xatlov) qilinganda - mazkur Nizomning 12-bandiga muvofiq;

universitetning korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi tomonidan Reyestrğa ma’lumot kiritish haqida bevosita ko‘rsatma bo‘lganida korrupsiyaviy tavsifdagi ma’lumotni xabar qilish uchun manfaatlar to‘qnashuvining mavjudligi haqida aloqa kanallaridan olingan ma’lumot tasdiqlanganda;

ichki xizmat tekshiruvlari o‘tkazilganda va universitetning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati va talablariga rioya qilinishi monitoring qilinganda hamda korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi tomonidan Reyestrğa ma’lumot kiritish haqida bevosita ko‘rsatma bo‘lganida.

Xodimlarning manfaatlar to‘qnashuviga tegishli bo‘lgan ariza va xabarnomalari hamda boshqa ma’lumotlar universitetning inson resurslarini boshqarish bo‘limi birinchi toifali muhandisida saqlanishi shart.

## **7-bob. Javobgarlik**

27. Barcha xodimlar egallab turgan lavozimidan qat’iy nazar, ushbu Nizom talablariga rioya qilishi, shuningdek o‘z manfaatlarining to‘qnashuvi to‘g‘risida universitet rahbariyatiga o‘z vaqtida va to‘liq ma’lumot berish bo‘yicha shaxsan javobgar hisoblanadi.

28. Manfaatlar to‘qnashuvi holatlari kelib chiqqan xodimlar tegishli ma’lumotni tahlil qilish va boshqa tekshirishlarni o‘tkazishda Universitetning mas’ul shaxslariga ko‘maklashishlari lozim.

29. Xodimning manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yashirish va (yoki) qasddan o‘z vaqtida yoki to‘liq oshkor etmasligi, universitet manfaatlarining buzilishiga olib kelganligi yoki olib kelmaganligidan qat’iy nazar, qabul qilingan axloqiy normalar, mehnat intizomi hamda ichki talablar buzilishi sifatida qaraladi.

30. Manfaatlar to‘qnashuvi haqidagi ma’lumotlarni umumlashtirish, ko‘rib chiqish hamda manfaatlar to‘qnashuvini hal etish bo‘yicha mas’ul xodimlar, shu jumladan ushbu ma’lumotlardan foydalanish vakolatiga ega xodimlar tomonidan axborotning konfidensialligini har qanday ko‘rinishda buzilishi xodimni intizomiy javobgarlikka tortish uchun asos bo‘ladi.

31. Xodimda u ongli ravishda mazkur Nizomda belgilangan tartibda mas’ul mansabdor shaxslarga xabar bermagan, xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarmasligiga olib kelgan yoki manfaatlar to‘qnashuvi aniqlanganda, bunday xodim O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida va universitetning ichki hujjatlarida belgilangan asoslarda va tartibda intizomiy javobgarlikka tortiladi.



## MA'LUMOTNOMA

Shrift 14

Shrift 14

Yeshmatov Botir Bahodirovich

Oq fondagi  
3x4 sm,  
oxirgi  
3 oy davomida  
olingan  
rangli  
fotosurat,  
elektron  
ko'rinishda

2007 yil 5 oktabrdan:

**Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining o'quv ishlari bo'yicha  
prorektori**

**Tug'ilgan yili:**  
25.10.1960

**Tug'ilgan joyi:**  
Toshkent viloyati, Qibray tumani

**Millati:**  
o'zbek

**Partiyaviyligi:**  
yo'q

**Ma'lumoti:**  
oliy

**Tamomlagan:**  
1982 y. Toshkent davlat universiteti (kunduzgi)

**Ma'lumoti bo'yicha mutaxassisligi:**

iqtisodchi

**Ilmiy darajasi:**  
iqtisod fanlari doktori

**Ilmiy unvoni:**  
professor

**Qaysi chet tillarini biladi:**  
rus, ingliz tillari

**Harbiy (maxsus) unvoni:**  
yo'q

Harbiy (maxsus) unvoni  
faqat harbiy va huquqni  
muhofaza qilish idoralari  
xodimlari uchun  
ko'rsatiladi.

**Davlat mukofotlari va premiyalari bilan taqdirlanganmi (qanaqa):**  
2005 y. «Mehnat shuhrati» ordeni

**Idoraviy mukofotlar bilan taqdirlanganmi (qanaqa):**  
2019 y. «Ma'naviyat fidoyisi» ko'krak nishoni

**Xalq deputatlari, respublika, viloyat, shahar va tuman Kengashi deputatimi yoki boshqa  
saylanadigan organlarning a'zosimi (to'liq ko'rsatilishi lozim):**

2020 y. - h.v. - Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi deputati,  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a'zosi

## MEHNAT FAOLIYATI

Shrift 14

- 1977-1982 yy. - Toshkent davlat universiteti talabasi  
1982-1988 yy. - Toshkent davlat universiteti iqtisodiyot fakulteti kichik ilmiy xodimi  
1988-1991 yy. - Toshkent davlat universiteti iqtisodiyot fakulteti aspiranti  
1991-1995 yy. - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti iqtisodiyot fakulteti katta ilmiy xodimi  
1995-1998 yy. - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti iqtisodiyot fakulteti doktoranti  
1998-2004 yy. - O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi ta'limni rivojlantirish bo'limi  
mutaxassisi, yetakchi mutaxassisi, bosh mutaxassisi  
2004-2007 yy. - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mikroiqtisodiyot fakulteti dekani  
2007 y. - h.v. - Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining o'quv ishlari bo'yicha prorektori

## Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

kadrlar boshqarmasi boshlig'i

IMZO

F.I.O.

**Izoh: Shrift: Times New Roman, 11, MS Word .doc formatida**

Sahifa chegaralari: yuqoridan 1,5 sm, pastdan 1 sm, o'ngdan 1 sm, chapdan 2 sm

Ma'lumotnomada qisqartirishlar ishlatish mumkin emas.

F.I.Sh. passport ma'lumotlari bilan tekshirilishi kerak.

Mehnat faoliyati bo'yicha ma'lumotlar Mehnat daftarchasi bilan, tamomlagan OO'Yu va mutaxassisligi bo'yicha ma'lumotlar diplom nusxasi bilan tekshirilishi lozim.

Faqat mukammal biladigan chet tillari ko'rsatiladi. Lug'at yordamida biladiganlari ko'rsatilmaydi. Qo'shni davlat tillarini bilishi yozilmaydi.

**Elektron versiyasi ilova qilinishi shart.** Fayl nomi kiril alifbosida to'liq F.I.Sh. (o',q,g',h o'rniga u,k,g,x ishlatilsin), masalan: Yeshmatov Botir Baxodirovich.doc

**Fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, boshqarma va bo'lim boshliqlari ma'lumotlarning to'g'riligi uchun javobgar hisoblanadi.**

**Yeshmatov Botir Bahodirovichning yaqin qarindoshlari haqida  
MA'LUMOT**

Shrift

Qarindoshligi	Familiyasi, ismi va otasining ismi	Tug'ilgan yili va joyi	Ish joyi va lavozimi	Turar joyi
<b>Otasi</b>	Yeshmatov Bahodir Temirovich	1935 yil, Qibray tumani	Pensiyada (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti)	Toshkent viloyati, Qibray tumani
<b>Onasi</b>	Abdushukurova Rahima	1936 yil, Bekobod tumani	2000 yil vafot etgan (Qibray sanoat texnikumi o'qituvchisi)	
<b>Opasi</b>	Soatova Gulchehra Bahodirovna	1959 yil, Qibray tumani	Toshkent tibbiyot kolleji o'qituvchisi	Toshkent viloyati, Qibray tumani
<b>Ukasi</b>	Yeshmatov Toxir Bahodirovich	1972 yil, Qibray tumani	O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yetakchi iqtisodchisi	Toshkent viloyati, Qibray tumani
<b>Turmush o'rtog'i</b>	Yeshmatova Nozima Sharofxodjaevna	1968 yil, Toshkent shahri	Toshkent shahar 1-markaziy poliklinikasi fizioterapiya bo'limi shifokori	Toshkent shahri, Mirobod tumani
<b>Qizi</b>	Yeshmatova Ziyoda Botirovna	1991 yil, Qibray tumani	O'zbekiston Milliy universiteti talabasi	Toshkent shahri, Mirobod tumani
<b>O'g'li</b>	Yeshmatov Anvar Botirovich	1995 yil, Qibray tumani	Respublika rassomlik kolleji o'quvchisi	Toshkent shahri, Mirobod tumani
<b>Qaynotasi</b>	Pirmatov Sharofxodja Nigmatovich	1939 yil, Toshkent shahri	2000 yil vafot etgan (O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti)	
<b>Qaynonasi</b>	Pirmatova Mashkura Sobirovna	1945 yil, Toshkent shahri	Pensiyada (Toshkent davlat texnika universiteti dotsenti)	Toshkent shahri, Olmazor tumani

**Izoh:**

Zarur:	To'g'ri:		Noto'g'ri:	
- qarindoshligi, familiyasi, ismi va sharihlari aniq ko'rsatilishi.	<b>O'g'li</b>	Ro'ziev Asror Holmatovich	<b>O'g'lim</b>	Ro'ziev A.H.
	<b>Turmush o'rtog'i</b>	Islamova Nilufar Sharipovna	<b>Rafiqam</b>	Islamova N.
- tug'ilgan yili, tumani (shahri) aniq ko'rsatilishi.	1976 yil, Urgut tumani	1956 yil, Qo'qon shahri	1976 y., Sam. vil. Urgut tum.	1956 yil, Farg'ona viloyati
- ish joyi va lavozimi to'liq ko'rsatilishi. Ma'lumotlar taqdim etilayotgan muddatda to'g'riligiga e'tibor qaratish.	«Foton» ochiq aksiyadorlik jamiyati iqtisod bo'limi mutaxassisi	Beshariq tumanidagi 20-maktab o'qituvchisi	MTP ishchisi	1990 yil, maktab o'qituvchisi
- vafot etgan bo'lsa vafot etgan yili va (pensiyada bo'lsa ham) avvalgi lavozimi to'liq ko'rsatilishi («ilgari», «bo'lgan» so'zlarisiz).	1992 yil vafot etgan (1-markaziy poliklinika shifokori)	Pensiyada (maktab o'qituvchisi)	Vafot etgan	Pensiyada (ilgari o'qituvchi bo'lgan)
- turar joyida viloyat, shahar, tuman, daha so'zlarining nomlari to'liq ko'rsatilishi.	Andijon viloyati, Asaka tumani, Ipakchilik qishloq fuqarolari yig'ini, 5-uy	Buxoro viloyati, Qorako'l tumani, Darg'a qishlog'i, 6-uy	Tosh. sh. Chilonzor 15/14/20	Buxoro vil., Vobkent tum.

**MA'LUMOT**  
**tijorat tashkilotlarining ustav fondida qatnashadigan**  
\_\_\_\_\_ (to'liq ismi)  
**bilan bog'liq tomonlar to'g'risida**

<b>Tijorat tashkiloti nomi</b>	<b>F.I.O.</b>	<b>Egalik ulushi</b>

**MA'LUMOT**  
**ustav fondida o'z ulushiga ega bo'lgan**  
\_\_\_\_\_ (to'lik ismi) va/yoki  
**uning yaqin qarindoshlari va tegishli shaxslar**

<b>Yuridik shaxsning</b>		<b>Egalik va qarindoshlik</b>	<b>Egalik xissasi</b>	<b>Faoliyatning asosiy turi</b>

**MA'LUMOT**  
**nodavlat notijorat tashkilotlarini boshqaruvida**  
\_\_\_\_\_ (to'liq ismi) va/yoki uning  
**yaqin qarindoshlarining ishtiroki to'g'risida**

<b>Nodavlat notijorat tashkilotning nomi</b>	<b>F.I.O. va qarindoshlik darajasi</b>	<b>Majburiyati</b>

Lavozimga tayinlanganda o'zgartirish/to'ldirish paytida manfaatlar to'qnashuvi  
mavjudligi/mavjud emasligi to'g'risida  
ARIZA

<b>F.I.Sh. ( to'liq):</b>	
<b>Tarkibiy bo'lim:</b>	
<b>Lavozimi</b>	
<b>Telefon raqami</b>	
<b>Bevosita rahbarining F.I.Sh. va lavozimi</b>	
<b>T/R</b>	
1	Agar sizning yaqin qarindoshlaringiz va/yoki aloqador shaxslarning O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va Sportni rivojlantirish vazirligida ishlayotgan bo'lsa, ularning mavqeini va tarkibiy bo'linmasini ko'rsating ( <i>agar ular ishlamasa "Yo'q" deb yozing</i> ).
2	Agar sizning yaqin qarindoshlaringiz va/yoki aloqador shaxslarning O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida ishlayotgan (o'qiyotgan) bo'lsa, ularning mavqeini va tarkibiy bo'linmasini ko'rsating ( <i>agar ular ishlamasa, o'qimasa "Yo'q" deb yozing</i> ).
3	Agar siz, sizning yaqin qarindoshlaringiz va/yoki aloqador shaxslaringiz tijorat tashkilotlarining ustav kapitalida ishtirok yetsa (yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar bo'lsa), sizning yegallab turgan lavozim manfaatlar to'qnashuviga olib keladi deb o'ylaysizmi? ( <i>agar ishtirok yetsa ularni ko'rsating, ishtirok yetmasa, "Ishtirok yetmaydi", agar u manfaatlar to'qnashuviga olib kelsa "Sababini ko'rsating", olib kelmasa, unda "Olib kelmaydi" deb ko'rsating</i> ).
4	Agar siz, sizning yaqin qarindoshlaringiz va/yoki aloqador shaxslaringiz nodavlat notijorat tashkilotini boshqarishda qatnashsa, sizning yegallab turgan lavozimingiz manfaatlar to'qnashuviga olib keladi deb o'ylaysizmi? ( <i>agar ishtirok yetsa ularni ko'rsating, ishtirok yetmasa, "Ishtirok yetmaydi", agar u manfaatlar to'qnashuviga olib kelsa "Sababini ko'rsating", olib kelmasa, unda "Olib kelmaydi" deb ko'rsating</i> ).
5	Sizning yaqin qarindoshlaringiz va/yoki aloqador shaxslaringiz davlat idoralarida va tashkilotlarda ishlaydimi? ( <i>agar ishlasa, uning mavqei va tarkibiy bo'linmasini ko'rsating</i> )
6	Siz, sizning yaqin qarindoshlaringiz va/yoki aloqador shaxslaringiz universitetda ishlashga shaxsiy qiziqish bildiradimi? Ha bo'lsa, batafsil
7	Agar manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan boshqa holatlar mavjud bo'lsa, ularni ko'rsating.
8	Agar kerak bo'lsa, qo'shimcha ma'lumotlarni ko'rsating.



Ushbu arizani imzolab, quyidagilarni tasdiqlayman:

menda manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan holatlar mavjud/mavjud yemas; (tegishli javobni ostki qismiga chiziqcha chizing);

ushbu arizada aks yetgan ma'lumotlar to'liq va haqqoniydir hamda men ushbu ma'lumotlarni universitet tomonidan tekshirilishiga rozilik bildiraman;

Universitetning manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi nizom talablariga binoan, men to'ldirgan har qanday arizani haqqoniyligiga ta'sir qiladigan yangi holatlar to'g'risida Universitet rahbariyatiga darhol xabar berish majburiyatini olaman.

(F.I.Sh.)

(imzo)

(sana)

Ushbu arizada quyidagi atamalar qo'llaniladi:

**yaqin qarindoshlar** - qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo'lgan shaxslar, yani ota-ona, tug'ishgan va o'gay aka-uka va opa-singillar, er-xotin, farzand, shu jumladan farzandlikka olinganlar, bobo, buvi, nevaralar, shuningdek yer-xotinning ota-onasi, tug'ishgan va ugay aka-uka va opa-singillari;

**aloqador shaxslar** - xodim bilan tijorat tashkilotlarining ustav kapitalida ishtirok yetadigan shaxslar, aksiyalari Respublika fond birjasida ommaviy muomalada bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarining besh foizidan kam bo'lgan miqdordagi aksiyaga yega yekanligi holatlari bundan mustasno;

**manfaatlar to'qnashuvi** - shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik Universitet xodimining mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan Universitetning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat;

**xodimning shaxsiy manfaatdorligi** - universitet xodimi tomonidan o'z xizmat vazifalarini bajarish chog'ida uning yaqin qarindoshi yoki xodimga aloqador bo'lgan shaxslar tomonidan xodimning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan pul mablag'lari, moddiy yoki nomoddiy qimmatliklar, boshqa mol-mulk, boylik va imtiyozlar ko'rinishida shaxsiy naf olish imkoniyati (shaxsiy, ijtimoiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijorat yoki notijorat manfaatlari).

Yillik deklaratsiyani to'ldirish vaqtida manfaatlar to'qnashuvi  
mavjudligi/mavjud emasligi to'g'risida  
**ARIZA**

<b>F.I.Sh. ( to'liq):</b>	
<b>Tarkibiy bo'lim:</b>	
<b>Lavozimi</b>	
<b>Telefon raqami</b>	
<b>Bevosita rahbarining F.I.Sh. va lavozimi</b>	
<b>T/R</b>	
1	Agar sizning yaqin qarindoshlaringiz va/yoki aloqador shaxslarning O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va Sportni rivojlantirish vazirligida ishlayotgan bo'lsa, ularning mavqeini va tarkibiy bo'linmasini ko'rsating <i>(agar ular ishlamasa "Yo'q" deb yozing).</i>
2	Agar sizning yaqin qarindoshlaringiz va/yoki aloqador shaxslarning O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida ishlayotgan (o'qiyotgan) bo'lsa, ularning mavqeini va tarkibiy bo'linmasini ko'rsating <i>(agar ular ishlamasa, o'qimasa "Yo'q" deb yozing).</i>
3	Agar siz, sizning yaqin qarindoshlaringiz va/yoki aloqador shaxslaringiz tijorat tashkilotlarining ustav kapitalida ishtirok yetsa (yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar bo'lsa), sizning yegallab turgan lavozim manfaatlar to'qnashuviga olib keladi deb o'ylaysizmi? <i>(agar ishtirok yetsa ularni ko'rsating, ishtirok yetmasa, "Ishtirok yetmaydi", agar u manfaatlar to'qnashuviga olib kelsa "Sababini ko'rsating", olib kelmasa, unda "Olib kelmaydi " deb ko'rsating).</i>
4	Agar siz, sizning yaqin qarindoshlaringiz va/yoki aloqador shaxslaringiz nodavlat notijorat tashkilotini boshqarishda qatnashsa, sizning yegallab turgan lavozimingiz manfaatlar to'qnashuviga olib keladi deb o'ylaysizmi? <i>(agar ishtirok yetsa ularni ko'rsating, ishtirok yetmasa, "Ishtirok yetmaydi", agar u manfaatlar tuqnashuviga olib kelsa "Sababini ko'rsating", olib kelmasa, unda "Olib kelmaydi " deb ko'rsating).</i>
5	Sizning yaqin qarindoshlaringiz va/yoki aloqador shaxslaringiz davlat idoralarida va tashkilotlarda ishlaydimi? <i>(agar ishlasa, uning mavqei va tarkibiy bo'linmasini ko'rsating)</i>
6	Siz, sizning yaqin qarindoshlaringiz va/yoki aloqador shaxslaringiz universitetda ishlashga shaxsiy qiziqish bildiradimi? Ha bo'lsa, batafsil
7	Agar manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan boshqa holatlar mavjud bo'lsa, ularni ko'rsating.
8	Agar kerak bo'lsa, qo'shimcha ma'lumotlarni ko'rsating.

Ushbu arizani imzolab, quyidagilarni tasdiqlayman:

menda manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan holatlar mavjud/mavjud emas; (tegishli javobni ostki qismiga chiziqcha chizing);

ushbu arizada aks etgan ma'lumotlar to'liq va haqqoniydir hamda men ushbu ma'lumotlarni universitet tomonidan tekshirilishiga rozilik bildiraman;

Universitetning manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi nizom talablariga binoan, men to'ldirgan har qanday arizani haqqoniylikiga ta'sir qiladigan yangi holatlar to'g'risida Universitet rahbariyatiga darhol xabar berish majburiyatini olaman.

(F.I.Sh.)

(imzo)

(sana)

Ushbu arizada quyidagi atamalar qo'llaniladi:

**yaqin qarindoshlar** - qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo'lgan shaxslar, yani ota-ona, tug'ishgan va o'gay aka-uka va opa-singillar, er-xotin, farzand, shu jumladan farzandlikka olinganlar, bobo, buvi, nevaralar, shuningdek er-xotinning ota-onasi, tug'ishgan va ugay aka-uka va opa-singillari;

**aloqador shaxslar** - xodim bilan tijorat tashkilotlarining ustav kapitalida ishtirok etadigan shaxslar, aksiyalari Respublika fond birjasida ommaviy muomalada bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarining besh foizidan kam bo'lgan miqdordagi aksiyaga ega ekanligi holatlari bundan mustasno;

**manfaatlar to'qnashuvi** - shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik Universitet xodimining mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan Universitetning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat;

**xodimning shaxsiy manfaatdorligi** - universitet xodimi tomonidan o'z xizmat vazifalarini bajarish chog'ida uning yaqin qarindoshi yoki xodimga aloqador bo'lgan shaxslar tomonidan xodimning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan pul mablag'lari, moddiy yoki nomoddiy qimmatliklar, boshqa mol-mulk, boylik va imtiyozlar ko'rinishida shaxsiy naf olish imkoniyati (shaxsiy, ijtimoiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijorat yoki notijorat manfaatlari).

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_ ga  
(bevosita rahbarning F.I.Sh. to'liq ismi)

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_ dan  
(tarkibiy bo'lim va lavozimi F.I.Sh.)

\_\_\_\_\_  
(telefon raqami)

### XABARNOMA

manfaatlar to'qnashuvining kelib chiqish ehtimoli haqida

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining 20\_\_ yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_  
dagi "\_\_\_" – sonli buyrug'iga asosan men, \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_  
(F.I.Sh , lavozimn va vazifasi)

sizga manfaatlar to'qnashuvining kelib chiqish ehtimoli haqida quyidagilarni xabar qilaman:

\_\_\_\_\_  
**(Shaxsiy manfaatlar (to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita) xizmat vazifalarini bajarishiga ta'sir qilishi yoki ta'sir qilishi mumkin bo'lgan va xodimning shaxsiy manfaati bilan universitetning manfaatlariga zid kelishi mumkin bo'lgan vaziyatni tasvirlaydi).**

\_\_\_\_\_  
(F.I.Sh.)

\_\_\_\_\_  
(imzo)

\_\_\_\_\_  
(sana)

**Xodimning bevosita rahbari tomonidan to'ldiriladi.**

Manfaatlar to'qnashuvini hal qilish uchun quyidagi hal qilish choralari ko'rildi:

\_\_\_\_\_ (manfaatlar to'qnashuvini hal qilish uchun ko'rilgan choralar ko'rsatiladi).

\_\_\_\_\_  
(F.I.Sh.)

\_\_\_\_\_  
(imzo)

\_\_\_\_\_  
(sana)

**Manfaatlar to'qnashuvi deb tavsiflanuvchi holatlarni hisobga olish  
REESTRI  
(19 dekabr 2022 yil holatiga)**

T/r	Manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lgan xodimning lavozimi	Manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lgan xodimning F.I.Sh.	Qarindoshlik darajasi	Qarindoshining F.I.Sh. va lavozimi	Manfaatlar to'qnashuvining turi (bevosita yoki bilvositta)	Manfaatlar to'qnashuvini hal qilish bo'yicha choralar	Odob-axloq komissiyasi yig'ilish bayonnomasi-ning soni va sanasi	Belgilangan choraning amalga oshirilishi ustidan nazorat qilish bo'yicha mas'ul shaxs
	1	2	3	4	5	6	7	8
<b>Xalqaro kurash sport turlari nazariyasi va uslubiyati kafedrası</b>								
1	Kafedra mudiri	Abdullaev Abdulla Abdullaevich	Ukasi	Abdullaev Babur Abdullaevich Badminton, tennis nazariyasi va uslubiyati kafedrası o'qituvchisi	Bilvosita			

**Kafedra mudiri**

**A.Abdullaev**

**Manfaatlar to'qnashuvini oldini olish bo'yicha  
TADBIRLAR**

T/r	Vaziyat	Davriyligi	Amalga onshiriladigan tadbirlar
1.	Ishga qabul qilish/ rotasiya/lavozimi o'zgarishi	Bir vaqtning o'zida	Yaqin qarindoshlar va/yoki aloqador shaxslar bilan bir-birlariga to'g'ridan-to'g'ri buyuvda ishlashiga yo'l qo'yilmasligini ta'minlash.
			Xar bir xodimni mazkur Nizom bilan imzo qo'ydirgan holda tanishtirish.
			Manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lgan shaxsni tanlov/attestasiya komissiyasi tarkibidan chiqarish choralarini ko'rish.
2.	Xarid qilish shartnomalarini tuzish	Bir vaqtning o'zida	Kontragentlardan ta'sischi, mulkdorlar, raxbarlari va yakuniy benifislar to'g'risida ma'lumotlarni so'rab olish.
3.	Davlat organlari, korxonlari, muassasalari va boshqa tashkilotlar faoliyatida intellektual mulk sohasidagi qonunchilik talablariga rioya etilishi bo'yicha o'rganishlar	Bir vaqtning o'zida	Ishchi guruh tarkibidan tekshirilayotgan davlat organlari, korxonlari, muassasalari va boshqa tashkilotlarda ishlayotgan yaqin qarindoshlari va aloqador shaxslari mavjud xodimlarni chiqarib tashlash.
4.	Xodimlar tomonidan manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida arizani to'ldirish	Har yili	Xodimlarning yaqin qarindoshlari va aloqador shaxslari to'g'risidagi ma'lumotlarni aniqlash.
5.	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'quvlarini o'tkazish	O'quv rejasiga muvofiq	Potensial va haqiqiy manfaatlar to'qnashuvi holatlarini, ular to'g'risida xabardor qilish tartibi va ularni hal qilish to'g'risida.
6.	Xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha maslahatlar	Amaliy	Xodimlarning manfaatlariga zid bo'lgan nizolarni boshqarish bo'yicha maslahatlarni, odob-axloq komissiyasi yoki mavjud aloqa kanallari orqali olishlarini ta'minlash.
7.	Aloqa kanallariga murojaatlarni qabul qilish *	Doimiy	Universitet xodimlari uchun manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi xabarlarni o'z vaqtida va to'g'ri qabul qilinishini, ro'yxatdan o'tkazilishini va qayta ishlashini doimiy ravishda ta'minlash.
8.	Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samaradorligini monitoring qilish	Doimiy	Samaradorligini monitoring qilish va baholash jarayonlarni avtomatlashtirish va ikki yoki undan ortiq shaxslarni muvofiqlashtirish bo'yicha qarorlar qabul qilish orqali manfaatlar to'qnashuvini boshqarish tizimini doimiy ravishda takomillashtirish.
	Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samaradorligini monitoring qilish	Doimiy	Samaradorligini monitoring qilish va baholash jarayonlarni avtomatlashtirish va ikki yoki undan ortiq shaxslarni muvofiqlashtirish bo'yicha qarorlar qabul qilish orqali manfaatlar to'qnashuvini boshqarish tizimini doimiy ravishda takomillashtirish.